

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining bo'shab qolgan o'rniiga deputat saylovi o'tkazilmoqda



Bugun, 26-mart kuni Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023 yil 21 fevraldag'i qaroriga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashining 22-Minor va 60-Fayzova saylov okruglarida bo'shab qolgan o'rnlarga deputat saylovi bo'lib o'tmoqda.

Ushbu saylovlarda 22-Minor, 60-Fayzova saylov okruglariga qarashli 26 ta saylov uchastkalarida amaldagi talablar asosida ovoz berish jarayonlari o'tkazilmoqda.

Saylovlarda 5 ta siyosiy partiyadan ko'rsatilgan nomzodlar xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligi uchun 2 ta saylov okrugida teng sharoit va imkoniyatlar asosida sog'lom raqobat olib borishmoqda.

Saylov jarayonlarini deputatlikka nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalardan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan jami 30 ga yaqin kuzatuvchilar kuzatib boryapdi.

**Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat
saylov Komissiyasi**